

“ABULFAYZZON” TRAGEDIYASINING YARATILISH TARIXI VA TAQDIRI

Ilhom G‘aniyev
filologiya fanlari dkotori

Annotatsiya: mazkur maqolada Abdurauf Fitratning "Abulfayzxon" pesasi-birinchi o‘zbek tragedisi ekanligi, uning yaratilish tarixi va taqdiri, tarixiy manbalari, obrazlar dunyosi, falsafiy konsepsiyasi ilmiy-nazariy tahlil va talqin qilingan.

Tayanch so‘zlar: adabiy tur, janr, tragediya, konflikt, pafos, obraz, qahramon, drammatizm.

Annotation: In this article, Abdurauf Fitrat’s play "Abulfayzkhan" is the first Uzbek tragedy, the history and fate of its creation, historical sources, the world of images, and its philosophical concept have been scientifically and theoretically analyzed and interpreted.

Key words: literary type, genre, tragedy, conflict, pathos, image, hero, drammatism.

Annotatsiya: v dannoy statye pyesa Abduraufa Fitrata "Abulfayzxon" yavlyayetsya pervoy uzbekskoy tragediyey, analiziruyutsya i nauchno interpretiruyutsya istoriya i sudba yee sozdaniya, istoricheskoye istochniki, mir obrazov, filosofskaya konsepsiya.

Ключевые слова: литературный тип, жанр, трагедия, конфликт, пafos, образ, герой, драматизм.

“Har qanday asar yozuvchi dunyoqarashining ifodasi bo‘lib, unda (ijodkor) voqelikka nisbatan o‘z munosabatini bildiradi, unga o‘zicha baho beradi”¹. Darhaqiqat, Abdurauf Fitratning 1924-yilda chop etilgan “Abulfayzxon” tragediyasi 20-yillar voqeligiga nisbatan dramaturg munosabatining yuksak badiiy formasidir.

Shunday ekan, “Abulfayzxon” tarixiy fojeasining yaratilishida qanday ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy, adabiy jarayon bo‘ldi? Bu savolga javob berish uchun so‘zni tragediya yozilgan 20-yillar Turkistondagi umumiy ahvoldan boshlamoq joiz.

1917-yil Turkistonda sovet hokimiyati g‘alaba vozongach, bugunga qadar “bosmachilik” deb noodil baholanayotgan, aslida, xalq milliy ozodlik harakati avj oldi. Vatan, Millat, Din, Mustaqillik bayrog‘i ostidagi bu ozodlik harakati 1920-1924-yillarda yuqori bir nuqtaga ko‘tarildi. Madaminbek, Ergash, Oxunjon, Xolxo‘ja, Soli Maxsum kabi “bosmachilik harakati”ning peshvolari rahbarligidagi qo‘shinlar bilan Sho‘ro qo‘shinlari o‘rtasida qaqshatqich janglar bo‘lib o‘tdi. Bu to‘qnashuvlardan mazlum xalq ko‘p talofot ko‘rdi. Mahalliy aholi eng og‘ir, murakkab, qaltis ahvolda qoldi. Har ikki yo‘ldan birini tanlashi kerak edi: yo eski feodal tartibotli jamiyatni, yoki Sharqqa erk, ozodlik va‘da qilgan Sovet hokimiyatini.

“Fitrat nega Abulfayzxon tarixiga murojaat etdi? XX asrning 20-yillaridagi shiddatli inqilobiy jarayon bilan olis tarixdagi sulolalar kurashining bir-biriga qanday yaqinligi bor? – deb savol qo‘yadi adabiyotshunos Begali Qosimov. Va o‘z

¹¹ Timofeev L.M. Основы теории литературы. М.: Просвещение, 1966, S.75.

bu savolga shunday javob beradi: - Avvalo, har ikki tarix ham xalqimiz hayotidagi eng mas’uliyatli, eng hayajonli edi. to‘g‘ri, biri ngi turmush bayrog‘i ostida, ikkinchisi yangi sulola himoyasi yo‘lida. Lekin bir-birini inkor etuvchi ikki holat – mamlakatning mustaqilligi va hokimiyat uchun kurash har ikkisi uchun ham xos bo‘lib, ularning biri birlashishga undasa, ikkinchisi bo‘linishni taqozo etardi. Har ikkisi ham jamiyatning barcha qatlamlarini o‘ziga jalb etgan va eng muhimi, har ikkisi ham kuchga, zo‘ravonlikka suyangan edi”². Ikkinchidan, mamlakatni yagona bolshevistik guruh boshqarishi oqibatida, yakka hokimiyatchilikning paydo bo‘lishi, iqtisodiy, madaniy hayotning og‘irlashuvi 20-yillarda hayotni yanada og‘irlashtirdi. Bunday musibatli davrda Fitratdek o‘z davrining ilg‘or ziyolisi voqealarga munosabat bildirmasligi mumkin emas edi. Odatda, tarixning eng og‘ir, ziddiyat va to‘qnashuvlarga boy yillarida xalq o‘z o‘tmishiga nazar soladi. Kechmishini o‘z zamonasi bilan muqoyasa qilib saboq chiqaradi, yo‘l tanlaydi. Tarixiy asarlar yaratish ham xuddi ana shu yillarda oldingi o‘ringa chiqadi. Abdulla Qodiriyning “O‘tgan kunlar”, Abdulhamid Cho‘lponning “Kecha va kunduz”, Sadridin Ayniyning “Buxoro mang‘it amirlari tarixi”, “Buxoro inqilobi tarixi uchun materiallar”, Hamzaning “Zaharli hayot” kabi asarlari ana shunday tarixiy zaruratning ehtiyoji sifatida yaratilgan. Fitratning “Chin sevish”, “Hind ixtilolchilari”, “Abulfayzxon” kabi asarlari ham shu tarixiy jarayon mahsulidir.

Shu yillarda Fitratning ijtimoiy taraqqiyotining chigalliklari, siyosatning “qorong‘uliklari”ga (Fitrat iborasi) bag‘ishlangan “Sharq siyosati” (1919), “Yig‘la, islom” (1920) kabi o‘tkir publitsistik maqolalari yozilgan. Fitrat ayni shu – mamlakatning o‘ziga – axloqiy-ma’naviy tomonlardan bahs etuvchi “Bedil” falsafiy-badiiy majmuasini bitdi.

Jamiyat taraqqiyoti, uning turli chigal, murakkab bosqichida tarixiy asarlarga ayricha ehtiyoj sezilishini Fitrat terandan anglardi. Shuning uchun 1929-yilda yozgan “XVI asr so‘nggi o‘zbek adabiyotiga bir qarash” nomli maqolasida, o‘tmishda sulolalar almashinuvi davrida tarix asarlariga alohida e‘tibor qilinganini ta’kidlab, quyi”dagilarni yozgan edi: “Bu davrda (XVI asrdan keyin, aniqrog‘i, Ubaydullaxon zamonida – I.G‘.) o‘zbekcha tarix adabiyoti juda boyidi. O‘lkani yangi istilo qilgan o‘zbek xonlari “Jo‘ji” vositasi bilan “Chingizxon”ga borib yetar edilar. Chingiz avlodi bo‘lmagan temuriylarga ko‘ra xonlikka o‘zlarini haqli ko‘rar edilar. Shu tomonni ochib xalqni o‘zlariga isindirmak uchun tarixiy asarlarga ayricha ahamiyat berildi. Rashididdinning mashhur “Jome‘ ul-tavorix”i, Sharafiddin Yazdiyning “Zafarnoma”si forschadan o‘zbekchaga tarjima qilindi. Qisqagina bir “Shayboniynoma” yozildi. Mavlono Abdulla ibn Ali tomonidan o‘z zamonida mavjud matxazlar aralashtirilib “Ziddat ul-asror” ismli o‘zbekcha bir tarix yozildi.

² Begali Qosimov. Inson fojealari. “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” haftanomasi, 1990, 6-aprel.

“Tarix xoniy” va “Bahrul asror” kabi forscha asarlar vujudga keltirildi. O‘lkada iqtisodiy-siyosiy tuzum davom etdi. Harbiylarning qabila boshliqlarining talablarini, ehtiyojlarini ta’min qiluv mumkin bo‘lmay qoldi. Shuning bilan xonlarning nufuzi kamaydi. Turli isyonlar maydonga chiqdi, viloyatlar ayrildi, xonlar o‘ldirilib saroy o‘zgarishlari yasaldi. Xonlik Shayboniylar sulolasidan Ashtarxoniylar sulolasiga o‘tdi (1597). Ashtarxoniylar zamonida o‘lkaning tinchsizligi, iqtisodiy tushkunligi kuchaydi, saroy qashshoqlandi, mamlakatda adabiyotning, umumiy nafis san’atning o‘suvida maydon qolmadi”³.

Darhaqiqat, Fitrat aytmoqchi, XVI asrdan so‘nggi O‘rta Osiyodagi siyosiy-iqtisodiy, madaniy hayot o‘ta og‘ir edi. o‘zaro feodal janglar, taxt talashishlari, hokimiyat uchun og‘a-ini bir-birini ayamaslik kabi illatlar bu davrda ko‘paydi. Bu kabi hokimiyat talashish voqealari asrimiz boshiga ham xos bo‘lib, o‘z davriga munosabat bildirish uchun ikki o‘xshash zamoni muqoyasa qilish dramaturgga qo‘l keldi va “Abulfayzxon” tarixiy fojeasiga shu tariqa asos topildi.

Agar Abdulla Qodiriy “O‘tgan kunlar”da mavzuni uzoq o‘tmish, “moziyning eng qaro” kunlaridan tanlangan bo‘lsa, Fitrat “Abulfayzxon” tragediyasiga ashtarxoniylar sulolasining (1597-1747) inqirozi va hokimiyat tepasiga mang‘it amirlarining (1753-1920) qatli om vositasida kelishi fojealarini tanladi.

Shoir va tarjimon Jamol Kamol tragediyaning qanday sharoitda, qay maqsadlar bilan yozilganligiga to‘xtalib shunday yozgan edi: “Buxoroda xalq jumhuriyati endigina barpo etilgan, lekin tarixdan haydalgan amir hali chegarada tish qayrab turar, uning qurolli to‘dalari imperialistik kuchlar bilan til biriktirib, yosh xalq hokimiyatiga qarshi jon-jahdi bilan to‘xtovsiz kurash olib borayotgan davr edi. Ana shunday sharoitda keng mehnatkashlar ommasi ko‘zi o‘ngida amirlik tartibotini tub mohiyatini baralla fosh etish qalam ahli oldida turgan muhim vazifalardan edi... “Abulfayzxon” murakkab sharoitda, lekin chuqur o‘ylanib, mohirona bitilgan drama”⁴.

Afsuski, “Abulfayzxon”ning yaratilish tarixiga oid Fitratning o‘z xotiralari, yozishmalariga bugungacha ega emasmiz. Shuning uchun gipoteza tarzida, tragediyaning yaratilishga sabab bo‘lishi mumkin bo‘lgan ayrim bir mulohazalarni qayd etamiz.

“Abulfayzxon”ning dunyoga kelishiga bois bo‘lgan ijodiy rol o‘ynagan sabablardan biri Fitratning jahon va turk, rus, tatar, ozarbayjon dramaturglari ijodi bilan tanish bo‘lganligi, deyish mumkin.

V.Shekspir, F.Shiller, N.V.Gogol, A.P.Chexov, X.Jovid, N.Narimonov kabi dramaturglarning asarlari 1911-24 yillar oralig‘ida bir necha bor rus, tatar,

³ Fitrat. XVI asrdan so‘nggi o‘zbek adabiyotiga umumiy bir qarash. “Alanga” jurnali, 8-son.

⁴ Jamol Kamol. “Abulfayzxon” – to‘ng‘ich tarixiy drama. “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati”, 1989-yil 14-aprel.

ozarbayjon drama dastalari tomonidan, Turkistonning markaziy shaharlarida namoyish etilgan⁵. (V.Shekspirning “Hamlet” va “Makbet” tragediyalarining “Abulfayzxon”ga ta’siri masalasi 1 bobning “Shekspir va Fitrat” faslida maxsus o‘rganiladi).

Ma’lumki, XX asr ozarbayjon adabiyotining yirik vakili Husayn Jovid (1882-1944) o‘zining “Oqsoq Temur”, “Siyovush”, “Hayyom” tarixiy dramalari, “Iblis”, “Shayx San’on” kabi tragediyalari bilan mashhur. Shuning bilan bir qatorda Narimon Narimonovning “Nodirshoh” tarixiy pyesasi ham ozar adabiyotining eng sara namunalari sanaladi.

Husayn Jovidning “Ramzi” (1913), “Iblis”, “Shayx san’on” tragediyasi, N.Narimonovning “Nodirshoh” pyesasi tomoshabiniga namoyish etilgan⁶. O‘z davrining zabardast dramaturgi bo‘lgan Fitrat bu kabi tarixiy voqea – asr boshida qardosh xalqlar drama dastasining repertuariga qiziqmasligi mumkinmi? Narimon Narimonovning “Lenin va Sharq” (1924) asarining Fitrat tomonidan tarjima etilganligi, uning ozarbayjon adabiyoti bilan yaqindan tanish bo‘lgan, deguvchi da’vomizni quvvatlaydi. Adabiyotshunos S.Aliyev to‘g‘ri qayd etganidek, “aytish joizki, H.Jovid va Fitra ijodi o‘rtasida umumiy o‘xshashliklar mavjud: g‘oyaviy-estetik qarashlarda murakkablik va ziddiyat, yirik tarixiy shaxslar obrazi yaratishga intilish”⁷.

“Abulfayzxon”ning qismati. 1910-yillar o‘zbek adabiyotida Fitratning “Abulfayzxon” tragediyasining yaratilishi, Abdulla Qodiriyning “O‘tgan kunlar”, “Mehrobdan chayon”, Abdulhamid Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romanlari kabi katta voqeadir. Ammo mamlakatda stalincha siyosatning paydo bo‘lib hukm surishi (1927-53) “Abulfayzxon”dek umuminsoniy dardlarga yo‘g‘rilgan, falsafiy va badiiy qudratga boy asarni adabiyot maydonidan “chetga surdi”. Uning keng va ilmiy xolis o‘rganilishiga yo‘l bermadi. Buning bosh sabablaridan biri, 20-30-yillarda vulgar sotsiologik, proletkulti-rappchi adabiy konsepsiyalarning paydo bo‘lishidir. Bu davrda ishchi sinfi dehqon va ziyolilarga qarshi qo‘yildi. RAPP va O‘zAPPchilarning fikricha, proletar adabiyotini faqat ishchi sinfining o‘zi yaratarmish, “Nazariy chalkash, amaliy jihatdan zararli” bo‘lgan bunday sinfiy munosabatlarning kasri Fitratning “Abulfayzxon” tarixiy fojeasiga ham urishi, tabiiy hol edi.

Fitrat tomonidan yozilgan “O‘zbek adabiyoti namunalari” (1927) kitobining taqdiri shunday kechdi. J.Boybo‘latov o‘tmish adaabiyotga nisbatan vulgar sotsiologik, qo‘pol munosabatda bo‘lib “axlat” deb atadi va Fitratni mutasavvuflik,

⁵ Aliyev S. Литературные связи и узбекская драматургия. Ташкент: Fan, 1975.

⁶ O‘sha yerda, 31-37-betlar.

⁷ O‘sha yerda, 81-bet.

panturkistlik, panislomistlikda nohaq aybladi⁸. Shundan so‘ng Fitratning dramatik asarlari ham “Qora ro‘yxatlar”ga tusha boshladi. Hamid Olimjon “Fitratning adabiy ijodi haqida” nomli maqolasida “Chin sevish”, “Hind ixtilolchilari”ni “millatchilik”da ayblarkan, “Abulfayzxon”ni “xalq ommasining yetakchi kui – dehqonlar, kosiblar tasvirlanmagan”, “xonlikka qarshi real kuch Fitrat qalamida uchramaydi” kabi sinfiylik ta’siridagi “tahlili” bilan adolatsiz aybladi.

Fitrat ijodi 1956-yilda rasman oqlangandan keyin ham “Abulfayzxon”ga sinfiylik “ko‘z oynagi”dan qarash o‘zgarmadi. Faqat adabiyotshunos Ahmad Aliyevgina, turg‘unlik yillarida, mazkur asar haqida ijobiy fikr aytishga jur‘at etdi (1983-yil)⁹.

Demak, Fitratning “Abulfayzxon” tarixiy fojeasining yaratilishiga 1920-yillar ijtimoiy-siyosiy vaziyatning keskinlashgani;

- Turkistonda xalq milliy ozodlik kurashining avj olishi;
- ikki o‘t oralig‘ida qolgan xalqqa tarix sabog‘i orqali qaysi yo‘lni tanlash kerakligi, amirlik istibdodining tarixan inqirozga mahkumligi;
- kuch, zo‘ravonlik, bosqinchilikka asoslangan tuzumning mohiyatini ochib berish sabab bo‘lib, XVIII asr voqealari bir vositadir.

“Abulfayzxon”ning qismati esa, Fitrat Xayol tilidan bashorat qilganidek, “fazilatlik bilimlarning qo‘l, qanotlarini uzib tashlagan, inju tuzguvchi adiblarning qalamlarini o‘choq supurgisiga aylantirgan” stalinizmning mash‘um oqibatlari bilan bevosita bog‘liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Timofeev L.M. Основы теории литературы. М.: Просвещение, 1966, S.75.
2. Begali Qosimov. Inson fojealari. “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” haftanomasi, 1990, 6-aprel.
3. Fitrat. XVI asrdan so‘nggi o‘zbek adabiyotiga umumiy bir qarash. “Alanga” jurnali, 8-son.
4. Jamol Kamol. “Abulfayzxon” – to‘ng‘ich tarixiy drama. “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati”, 1989-yil 14-aprel.
5. Aliyev S. Литературные связи и узбекская драматургия. Ташкент: Fan, 1975.
6. Fitrat. Yopishmagan gajjaklar. (O‘rtoq Boybo‘latovga ochiq xat). “Yoshlik” jurnali, 1990. 5-son.
7. Ahmad Aliyev. Adabiy meros va zamonaviylik. Toshkent: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1983.

⁸ Fitrat. Yopishmagan gajjaklar. (O‘rtoq Boybo‘latovga ochiq xat). “Yoshlik” jurnali, 1990. 5-son.

⁹ Ahmad Aliyev. Adabiy meros va zamonaviylik. Toshkent: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1983.